

"TBC Bank" ATBning "Aksiya omonatlari 1.1" aksiyasini o'tkazish qoidalar

MUNDARIJA

1. Umumiy qoidalar;
2. Atamalar va ta'riflar;
3. Aksiya tashkilotchisi;
4. Aksiyada ishtirok etish tartibi;
5. Ishtirokchilarning huquq va majburiyatlari;
6. Bankning huquq va majburiyatlari;
7. Javobgarlik;
8. Nizolarni hal qilish tartibi;
9. Boshqa shartlar.

1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. "TBC Bank" ATB (bundan keyin - Bank) tomonidan o'tkaziladigan **"Aksiya omonatlari 1.1"** (bundan keyin - Aksiya) nomli aksiyaning ushbu qoidalar Bank mijozlarining Aksiyada ishtirok etish shartlari va tartibini belgilaydi.

1.2. Aksiya lotereya, tavakkalchilikka asoslangan o'yin yoki ishtirokchilar uchun mulkiy xatarlar yuzaga kelishi bilan bog'liq boshqa tadbir hisoblanmaydi. Aksiyani o'tkazish ishtirokchilardan ishtirok etish uchun hech qanday to'lovni talab qilmaydi.

1.3. Ushbu Qoidalar O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 367-moddasi va 369-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq ommaviy oferta hisoblanadi. Qoidalar Bankning www.tbcbank.uz rasmiy veb-saytida joylashtirilgan.

1.4. Aksiya muddati:

Aksiya boshlanish sanasi: 14.11.2025;

Aksiya tugash sanasi: 04.12.2025.

Aksiya muddati boshlanish sanasidan tugash sanasigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi.

1.5. Aksiya o'tkaziladigan joy O'zbekiston Respublikasi hududi hisoblanadi.

1.6. Aksiya muddati davomida quyida ko'rsatilgan barcha shartlarga javob beradigan har qanday identifikatsiyalangan Bank mijozi Aksiya ishtirokchisi bo'lishi mumkin:

- 2025-yil 1-noyabrdan 30-noyabrgacha bo'lgan davrda 13 oy va undan ortiq muddatga qo'yilgan muddatli omonati yopilayotgan mijoz;
- 2025-yil 1-noyabr holatiga ko'ra yopilayotgan omonatlarning umumiy summasi kamida 10 000 000 (o'n million) so'mni va ko'pi bilan 1 000 000 000 (bir milliard) so'mni tashkil etishi lozim.
- Bank mobil ilovasi dizaynini yangilagan mijoz. Ushbu shart Mijoz bilan kelishilgan holda bajariladi, chunki yangilanish natijasida interfeys sezilarli darajada o'zgaradi. Bank Mijoz bilan bog'lanish va yangilash takliflarini (SMS, push-bildirishnomalar, qo'ng'iroqlar) taqdim etish choralarini ko'radi. Agar Mijoz dastlabki ikki shartga muvofiq bo'lsa, u Bank bilan mustaqil ravishda bog'lanishi mumkin.

1.7. Bank mahsulotlari va xizmatlarini olish, ulardan foydalanish tartibi hamda shartlari Bank mahsulotlari va xizmatlarini taqdim etish bo'yicha Bosh shartlar (bundan keyin matnda BSh deb yuritiladi), shuningdek, Bankning rasmiy veb-saytida joylashtirilgan va/yoki Bankning mobil ilovasida tanishish imkoniyati mavjud bo'lgan boshqa shartnomalar bilan tartibga solinadi.

1.8. Aksiyaning amal qilish muddati davomida omonat ochgan va ushbu Qoidalar 1.6-bandida keltirilgan shartlarga muvofiq bo'lgan Bank mijozi ushbu ommaviy ofertani qabul qilgan va Aksiyada ishtirok etish shartlariga rozilik bildirgan hisoblanadi.

2. ATAMALAR VA TA'RIFLAR

Bank	"TBC Bank" aksiyadorlik tijorat banki
Aksiya	"TBC Bank" ATB aksiyasi "Aksiya omonatlari 1.1."
Bank mijozi	Bank xizmatlari va mahsulotlaridan foydalanuvchi jismoniy shaxs
Ishtirokchi	Aksiya ishtirokchisi sifatida ushbu Qoidalar shartlariga javob beradigan Bank mijozi.
Ilova	AppStore va Playmarket platformalarida smartfon qurilmalari uchun mavjud bo'lgan TBC UZ mobil ilovasi.
Omonat	Aksiya omonatlari 1.1

3. AKSIYA TASHKILOTCHISI

3.1. Aksiya tashkilotchisi Bank hisoblanadi.

3.2. Bankning aloqa ma'lumotlari: 100015, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Fidokor ko'chasi, 10B-uy.
Telefon: +99878 777 2727.

Elektron pochta: contact@tbcbank.uz

4. AKSIYADA ISHTIROK ETISH TARTIBI

4.1. Ishtirokchi bo'lish uchun Bank mijozi ushbu Qoidalarining 1.6-bandida ko'rsatilgan shartlarga rioya qilishi lozim.

4.2. Mukofot. Aksiya ishtirokchilari quyidagi shartlar asosida omonat joylashtirish imkoniyatiga ega:

 TBC BANK	TBC Omonat
TARIF "Omonatlar Aksiya 1.1"	
1. Ochish va xizmat ko'rsatish	Bepul
2. Foiz stavkalari	
Muddat, oy	24
Yillik foiz	22%
3. Omonat muddatidan oldin yopilganda foiz stavkalari	
Muddat, oy	24
Yillik foiz	0%
4. Omonatdan qisman muddatidan oldin pul yechib olish*	Bepul
*Omonat ochilganidan keyin kamida bir oy o'tgach, omonat bo'yicha eng kam qoldiq summasi 10 000 000 so'mdan (shu jumladan) kam bo'lmagan holatda imkoni bor.	
5. Minimal omonat summasi	1 000 000 so'm
6. Maksimal omonat summasi	1 000 000 000 so'm
7. Har bir mijoz uchun omonatlarning maksimal soni	10*
* Limit muddatli va muddatli to'ldiriladigan omonatlarni hamda qisman yechib olish imkoniyati bilan muddatli to'ldiriladigan omonatlarni hisobga oladi	
8. Aksiyali omonatlar soni limiti	1
9. Omonatdan bankda ochilgan karta yoki joriy hisobraqamiga pul o'tkazish	Bepul
10. Omonatni to'ldirish	Bepul

Omonatning asosiy shartlari

Omonat turi	1.1-aksiya muddatli omonati
-------------	-----------------------------

Omonat summasi va valyutasi	So'mda 1 000 000 so'mdan 1 000 000 000 so'mgacha bo'lgan omonat
Omonat muddati	24 oy
Ochish paytida omonatni to'ldirish	Ulangan kartalardan yoki TBC UZ ilovasidagi joriy hisobraqamdan
Ochilgandan keyin omonatni to'ldirish	TBC UZ ilovasiga ulangan kartalardan, joriy hisobraqamdan yoki jamg'armadan omonatning maksimal summasigacha to'ldirish mumkin
Foiz stavkasi	Bank tariflariga muvofiq
Omonat bo'yicha foizlarni hisoblash va to'lash tartibi	Foizlar omonatchining muddatli omonatiga pul kiritilgan kundan keyingi kundan boshlab pul omonatchiga qaytarilishidan oldingi kungacha yoki boshqa asoslarga ko'ra muddatli omonat to'liq yechilgunga qadar har kuni hisoblanadi. Bunda bir ish kuni davomida amalga oshirilgan barcha amaliyotlar hisobga olingan holda, omonatdagi eng kam qoldiq asosida hisob-kitob qilinadi. Foizlar omonatchining xohishiga ko'ra bankda ochilgan so'mdagi joriy hisobraqamga, bank kartasiga yoki virtual kartaga har oyda to'lab beriladi.
Foizlarni kapitallashtirish	Qo'llanilmaydi
Qisman yechib olish	Omonat qoldig'ining minimal miqdori 10 000 000 so'mgacha bo'lgan holatda mumkin. Omonat ochilgandan keyin kamida bir oy o'tgach amalga oshirilishi mumkin. Pullarni bankda ochilgan TBC so'mdagi kartalariga yoki joriy so'm hisobraqamiga o'tkazib, yechib olish mumkin
Muddatidan oldin yopish	Muddatidan oldin yopilganda, barcha hisoblangan va to'langan foizlar Tarifda belgilangan muddatidan oldin yopish stavkasi bo'yicha qayta hisoblanadi
Omonatni avtomatik uzaytirish	Imkoni yo'q
Omonatni yopish	Asosiy summa bankda ochilgan TBC so'mdagi kartaga yoki joriy so'm hisobraqamiga o'tkaziladi

5. ISHTIROKCHILARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

5.1. Ishtirokchi quyidagi huquqlarga ega:

5.1.1. Aksiya haqidagi ma'lumotlarni ushbu Qoidalar, Umumiy shartlar va bank bilan tuzilgan boshqa shartnomalarda nazarda tutilgan hajm va tartibda olish;

5.1.2. Ushbu Qoidalarining 1.6-bandida belgilangan mezonlarga rioya qilgan holda, mazkur Qoidalarga muvofiq Aksiya ishtirokchisi maqomini olish.

5.2. Ishtirokchi quyidagilarga majbur:

5.2.1. Aksiyada ishtirok etishdan avval ushbu Qoidalar bilan tanishib chiqish zarur. Aksiyada ishtirok etish orqali Bank Mijozi ushbu Qoidalar bilan tanishganligini tasdiqlaydi va ularning shartlariga to'liq hamda so'zsiz roziligini bildiradi.

6. BANKNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

6.1. Bank ushbu Qoidalarga muvofiq Aksiyani o'tkazish, shuningdek, ishtirok etish shartlarini to'g'ri bajargan Ishtirokchilarga sovrinlarni taqdim etish majburiyatlarini o'z zimmasiga oladi.

6.2. Ushbu Aksiya mazkur Qoidalarining 1.4-bandida belgilangan butun amal qilish muddati davomida Bank tomonidan bekor qilinmaydi.

Bank Aksiyaning amal qilish muddatini bir tomonlama uzaytirish huquqiga ega. Uzaytirish to'g'risidagi ma'lumotlar Bankning rasmiy veb-saytida joylashtiriladi va/yoki mijozlarga boshqa mavjud aloqa usullari orqali yetkaziladi. Bular jumlasiga mobil ilovaga xabarlar yuborish, SMS, push-bildirishnomalar va/yoki elektron pochta orqali xabardor qilish kiradi, ammo bular bilan cheklanmaydi.

6.3. Aksiya ishtirokchilarini aniqlash va suiiste'molliklarning oldini olish maqsadida Bank O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda Aksiya maqsadlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan hajmda Ishtirokchilarning shaxsiy ma'lumotlarini so'rash va qayta ishlash huquqiga ega. Bu ma'lumotlarga anketa ma'lumotlari, hujjatlar, mijoz bilan o'zaro munosabatlar davomida olingan ma'lumotlar kiradi, ammo ular bilan cheklanmaydi.

6.4. Bank yutuqlar o'yini shartlariga bir tomonlama o'zgartirishlar kiritish, shuningdek, Aksiya haqidagi qo'shimcha ma'lumotlarni ushbu rasmiy veb-saytda e'lon qilish huquqini o'zida saqlab qoladi: <https://tbcbank.uz>.

6.5. Mijoz faqat Bank tomonidan Ishtirokchining ushbu Aksiya shartlariga muvofiqligi, shuningdek, Ishtirokchi tomonidan suiiste'mollik, qoidabuzarlik yoki boshqa shubhali yoxud g'ayriqonuniy xatti-harakatlar yo'qligi yuzasidan tekshiruv yakunlangandan so'nggina sovrinni olishga da'vo qilishi mumkin.

Bank o'zining asosli fikricha, agar Ishtirokchi:

- ushbu Qoidalarni buzgan bo'lsa;
- Aksiya shartlaridan vijdotsizlik bilan foydalangan bo'lsa;
- noqonuniy foyda olishga qaratilgan harakatlarni sodir etgan bo'lsa;

- Aksiya shartlarini boshqa tarzda suiiste'mol qilgan bo'lsa, sovrin berishni rad etishga haqli.

6.6. Ushbu Qoidalarining 6.5-bandida ko'rsatilgan hollarda, Bank o'z ixtiyoriga ko'ra quyidagi huquqlarga ega:

a) avval hisoblangan sovrinlarni bekor qilish;

b) Mijozning Aksiyada keyingi ishtirokini rad etish;

v) Mijozni Aksiya bo'yicha sovrinlarni olish huquqidan mahrum qilish;

g) Mijozning kelgusi aksiyalar, yutuqli o'yinlar va sodiqlik dasturlarida ishtirokini to'xtatish yoki bloklash;

d) Mijoz hisobining amal qilishini vaqtincha yoki butunlay to'xtatib qo'yish.

6.7. Aksiya shartlarini suiiste'mol qilish sifatida, jumladan, quyidagi harakatlar ko'rib chiqiladi:

- bir nechta shaxs yoki bitta shaxs tomonidan bir nechta hisob yaratish;

- Aksiyada ro'yxatdan o'tish yoki ishtirok etishda ishonchsiz, yolg'on yoki soxta ma'lumotlarni taqdim etish;

- ijtimoiy tarmoqlarda, internet-saytlarda, forumlarda, qidiruv tizimlarida yoxud axborotni ommaviy joylashtirish va/yoki ommaviy tarqatishning boshqa usullarida ishonchsiz, qonunga xilof yoki buzib ko'rsatilgan ma'lumotlarni tarqatish;

- hisob egasi nomidan harakat qiluvchi uchinchi shaxslarga hisobdan foydalanish imkonini berish.

7. JAVOBGARLIK

7.1. Bank ushbu Qoidalarda nazarda tutilgan majburiyatlarning qisman yoki to'liq bajarilmaganligi uchun, agar bunday bajarilmaslik texnik nosozliklar, buzilishlar, axborot yoki dasturiy ta'minot tizimlaridagi xatolar, shuningdek, Aksiya amal qilish muddati davomida uchinchi shaxslarning, shu jumladan Bankning hamkorlari va xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarining harakatlari (harakatsizligi) natijasida yuzaga kelgan bo'lsa, javobgar hisoblanmaydi.

7.2. Bank Aksiyada ishtirok etish doirasida Ishtirokchilarning, shuningdek, Ishtirokchi tomonidan Sovrinlarni olish uchun nomzod qilib ko'rsatilgan shaxslarning xatti-harakatlari uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.

7.3. Ushbu Qoidalarining 7.1-bandida ko'rsatilgan hollarda, Bank o'z tizimlarida, shuningdek, Aksiyani amalga oshirishda ishtirok etuvchi hamkorlar yoki xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar tizimlarida yuzaga kelgan texnik nosozliklar, xatolar va boshqa buzilishlarni bartaraf etish muddatlarini mustaqil ravishda belgilash huquqiga ega.

7.4. Agar ushbu Aksiya shartlarining buzilishiga olib kelgan uchinchi shaxslarning, shu jumladan Bankning hamkorlari, yetkazib beruvchilari va boshqa kontragentlarining qasddan yoki ehtiyotsizlik orqali qilgan harakatlari yoki harakatsizligi tufayli majburiyatlarni bajarish imkoniyati bo'lmasa, Bank ushbu Qoidalar bo'yicha javobgarlikdan ozod etiladi.

7.5. Ushbu Qoidalar bilan tartibga solinmagan barcha masalalar Bosh shartlarga, Bank va Mijoz o'rtasida tuzilgan boshqa shartnomalarga, shuningdek O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq hal etiladi.

8. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

8.1. Ushbu Qoidalaridan yoki ular bilan bog'liq holda kelib chiqadigan barcha nizolar va kelishmovchiliklar Tomonlar o'rtasidagi o'zaro maslahatlashuvlar va muzokaralar asosida sudgacha bo'lgan tartibda hal qilinishi lozim. Da'vo tartibi nizolarni ko'rib chiqishning majburiy sharti hisoblanadi.

8.2. Agar Tomonlar ushbu Qoidalarining 8.1-bandida nazarda tutilgan tartibda nizoli masalalar bo'yicha kelishuvga erisha olmasalar, nizo O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq Bank ro'yxatdan o'tgan joydagi sudda ko'rib chiqiladi.

9. BOSHQA SHARTLAR

9.1. Ushbu Qoidalar Bankning www.tbcbank.uz rasmiy veb-saytida joylashtirilgan.

9.2. Aksiya ishtirokchilari yuqorida ko'rsatilgan veb-saytda joylashtirilgan o'zgarishlar va yangilanishlarni muntazam ravishda tekshirib, Aksiya shartlarining dolzarbligini mustaqil ravishda nazorat qilishlari shart.

9.3. Bank Mijozni TBC UZ mobil ilovasining "Yordam 24/7" bo'limi orqali tegishli xabarnoma yuborish yo'li bilan ushbu Aksiyada ishtirok etishdan voz kechish huquqiga ega.

9.4. Bank xodimlari, Bank bilan aloqador tashkilotlarning xodimlari, shuningdek, ularning yaqin qarindoshlari ushbu Aksiyada ishtirok etish huquqiga ega emas.